



Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi



2024- YIL YANVAR- SENTABR OYLARIDA ASOSIY KAPITALGA TESTITSIYAL







2024-yilning yanvar-sentabr oylarida 24 399,5 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 160,6 % i yoki 3 091 mlrd. so'mi jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxona, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 9,8 % yoki 2 394,3 mlrd. so'm moliyalashtirildi.

Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2023-yildagi ulushiga nisbatan 2,5 % punktga kamaydi, 14,5 % ni yoki 3539,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 20 860,4 mlrd. so'm yoki jami investitsiyalarning 85,5 % investitsiyalari o'zlashtirilib, 2023-yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,6 % punktga ko'paydi.



Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd.so'm




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 2 394,3 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarining 9,8 % ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarining 7,3 % yoki 1 785,0 mlrd. so'mi o'zlashtirildi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 6 341,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023-yilning mos davriga nisbatan 7,6 % punktga ko'payib, 226,9 % ni tashkil etdi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan, % da



▲ bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarz mablag'lari
✖ Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi
● Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi




Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlarini moliyalastirish manbalari bo'yicha yuqori ko'rsatkich O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlarda kuzatilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,6 m % ga ko'paydi. Nishon tumanida quvvati 900 mVt kuchlanishga ega ikkita bug' gaz uskunalarini qurish bo'yicha o'zlashtirilgan investitsiyalar bilan bog'liq.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

	Investitsiyalar hajmi, mlrd. soʻm	Oʼsish surʼati, % da	Qashqadaryo viloyatidagi ulushi, % da
Qashqadaryo viloyati	24399,6	160,6	100,0
Qarshi sh.	2912,6	111,0	11,9
Shahrisabz sh.	608,0	241,7	2,5
tumanlar:			
Gʼuzor	2781,6	146,8	11,4
Dehqonobod	198,6	83,7	0,8
Qamashi	419,0	114,3	1,7
Qarshi	700,4	126,0	2,9
Koson	432,8	83,1	1,8
Kitob	494,3	91,1	2,0
Mirishkor	379,6	131,3	1,6
Muborak	4336,9	183,8	17,8
Nishon	8093,0	243,7	33,2
Kasbi	642,2	121,2	2,6
Koʼkdala	129,8	50,3	0,5
Chiroqchi	688,4	135,3	2,8
Shahrisabz	843,9	232,1	3,5
Yakkabogʻ	738,4	133,4	3,0

Shuningdek, kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan oʼzlashtirilgan investitsiyalar 2023- yilning mos davriga nisbatan 161,1 % ga koʼpaydi. Qarshi tumanida tomchilab sugʼorish loyihasini amalga oshirilmoqda Turkiya davlatlaridan kiritilgan investitsiyalar bilan izohlash mumkin.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida investitsiyalarning o'sish sur'atlari, % da



Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha 2023-yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati 2,4 m % ga o'sib, Nishon tumanida tashkil etilgan, quvvati 900 mVt kuchlanishga ega ikkita bug' gaz uskunalarini qurish bo'yicha o'zlashtirilgan investitsiyalar bilan bog'liq.


Shuningdek, Nishon tumanida xam yuqori o'sish sur'atlari 243,7% kuzatildi. Shahrisabz shahrida ham yuqori o'sish sur'ati kuzatilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 241,7% ni tashkil qildi.



Mashina, uskuna, inventar



Qurilish-montaj ishlari



Yangi qurilish



Kengaytirish, rekonstruksiya,
modernizatsiya



Boshqa yo'nalishlar

Boshqa xarajatlar

Qashqadaryo viloyati bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 12 972,5 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 53,2 % ini tashkil etdi. Qurilish-montaj ishlari bo'yicha 9 441,2 mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 38,7 %) va boshqa xarajatlarga 1 985,8 mlrd. so'm (8,1 %) o'zlashtirildi.

Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Nishon tumanida kuzatildi – 9,5 % yoki 2 315,4 mlrd. so'm.


Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng quyi daraja Mirishkor tumanida kuzatilib, 0,3 % ni yoki 75,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qarshi tumanida mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich – 20,9 % yoki 5 121,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Joriy hisobot davrida ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi yangi qurilishga yo'naltirildi. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 13 229,9 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 54,2 % ini tashkil etdi.


Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Nishon tumanida quvvati 900 mvt kuchlanishga ega ikkita bug' gaz uskunalarini qurish bo'yicha o'zlashtirilgan investitsiyalar bilan bog'liq.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 9 025,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va respublikadagi jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 37,0 % ini tashkil etdi. Qolgan 8,8 %, ya'ni 2 143,7 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.


Hudular bo'yicha yangi qurilish ishlaringning ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da




Hududlar bo'yicha kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiya uchun investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da




Hududlar bo'yicha boshqa yo'naliishlarda o'zlashtirilgan investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da




Hududlar bo'yicha mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da



HUDUDLAR BO'YICHA QURILISH - MONTAJ ISHLARIGA INVESTITSIYALAR ULUSHI, JAMI INVESTITSIYALARGA NISBATAN, % DA



Hududlar bo'yicha boshqa xarajatlar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida tog'-kon sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish

manbalari hisobidan 6 781,7 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan 27,8 % tashkil o'zlashtirilgan.

Ishlab chiqarish sanoati tarkibida eng ko'p investitsiyalar o'zlashtirilgan 3 ta faoliyat turlari quyidagilar:


REZINA VA PLASTMASSA BUYUMLARI ISHLAB CHIQARISH
302,4 mlrd. so'm
Ulushi 1,2 %

BOSHQA NOMETALL MINERAL MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH
332,2 mlrd. so'm
ulushi 1,4 %

TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH
926,1 mlrd. so'm
ulushi 3,8 %

Tog‘-kon sanoatida jami 6 781,7 mlrd.so‘m yoki viloyat bo‘yicha jami investitsiyalar hajmining 27,8 % i o‘zlashtirilgan bo‘lib, uning tarkibidan 19,8 % i yoki 1 340,4 mlrd. so‘mi xom neft va tabiiy gaz qazib chiqarish sohasiga tegishlidir.

Qashqadaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan % da




Hududlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

	Jami	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar	O‘z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	mlrd. so‘m Kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlar
Qashqadaryo viloyati	18 914,3	6 341,7	2 448,2	10 124,4
Qarshi sh.	1216,9	254,8	0,0	889,8
Shahrisabz sh.	417,4	3,9	72,3	413,5
tumanlar:				
G‘uzor	2179,2	3,5	0,0	2175,0
Dehqonobod	10,6	0,0	0,7	0,0
Qamashi	236,4	12,0	10,6	223,5
Qarshi	409,3	71,8	0,9	317,4
Koson	123,1	0,0	20,1	7,1
Kitob	278,1	137,5	116,0	139,9
Mirishkor	274,8	42,1	0,8	232,8
Muborak	3925,6	25,2	0,0	3900,4
Nishon	7814,7	5490,3	0,0	411,0
Kasbi	510,3	286,0	1913,4	224,4
Ko‘kdala	7,0	0,0	0,0	7,0
Chiroqchi	346,9	0,0	0,0	346,9
Shahrisabz	660,5	0,0	0,0	489,5
Yakkabog‘	503,6	14,7	171,0	346,4

2024- yil yanvar-sentabr oylarida 18 914,3 mlrd. so‘m yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 77,5 % i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o‘zlashtirildi.

Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 6 341,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi va qolgan 2 448,2 mlrd. so‘m xorijiy kreditlar hisobiga to‘g‘ri keldi.

IJTIMOY SOHA OBYEKTALARINI ISHGA TUSHIRISH



	Xonadonlar soni, birlik	Maydoni, ming kv.m
Qashqadaryo viloyati	3 042	673,1
Qarshi sh.	266	60,6
Shahrisabz sh.	154	33,4
tumanlar:		
G'uzor	272	68,3
Dehqonobod	148	41,6
Qamashi	227	37,9
Qarshi	220	56,2
Koson	229	50,8
Kitob	315	78,8
Mirishkor	74	13,1
Muborak	84	13,1
Nishon	123	15,6
Kasbi	125	31,5
Ko'kdala	38	6,0
Chiroqchi	421	99,0
Shahrisabz	140	25,9
Yakkabog'	206	41,3

Qashqadaryo viloyatida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

Qishloq joylar ulushi

0,0 km
uzunlikdagi suv
tarmog'i



Suv tarmog'i qurilishida investitsiyalar o'zlashtirilmadi..

0,0 km
uzunlikdagi gaz
tarmog'i



Gaz tarmog'i qurilishida investitsiyalar o'zlashtirilmadi.

11444 o'quvchi
o'ringa
mo'jallangan
muktablar



Muktablar qurilishida jami 245,9 mlrd. so'm
investitsiyalar Respublika budjeti hisobidan
o'zlashtirildi.

150 o'ringa
mo'jallangan
muktabgacha ta'lif
muassasalari



Muktabgacha ta'lif muassasalari qurilishida jami
60,9 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilib,
ulardan 100,0 % i Respublika budjeti hisobidan
o'zlashtirildi.

950 qatnovga
mo'jallangan
poliklinikalar



Kasalxona va poliklinikalar
qurilishida jami 62,5 mlrd. so'm
investitsiyalar Respublika budjeti
hisobidan o'zlashtirildi.



Qarshi tumanida 330, Koson tumanida 1748, Ko‘dala tumanida 720, Shahrisabz tumanida 1730, Qamashi tumanida 1010, Chirogchi tumanida 3256, Kitob tumanida 940 va Yakkabog‘tumanida 600 o‘quvchi o‘rinda mo‘ljallangan maktablar rekonstruksiya hisobidan ishga tushirildi.



Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘limi

Aloqa telefoni: (75) 221-32-47